

INSONNI QADRLASH BORASIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FALSAFIY G‘OYALARI VA TAVSIYALARI

Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
O‘zMU doktoranti.

shodiyevjahongir1985@gmail.com

+99890-299-95-17

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi davr va G‘arb falsafasida inson qalbi to‘g‘risidagi falsafiy qarashlarning tadrijiy takomillashuvi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada inson qalbining g‘arbona talqini va inson manaviy-ruhiy olami to‘g‘risidagi falsafiy antropologik qarashlarning shakllanishi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Inson qadri, qadr, qalb, jon, ruh, ruhiy quvvat, inson qalbi, ma’naviy-ruhiy olam, ruhiyat, falsafiy antropologiya.

ФИЛОСОФСКИЕ ИДЕИ И РЕКОМЕНДАЦИИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ О ЦЕННОСТИ ЧЕЛОВЕКА.

Shodiev Jaxangir Djurakulovich – doktorant UzMU, doktor filosofskix nauk (PhD).

shodiyevjahongir1985@gmail.com

+99890-299-95-17

Аннотация. В данной статье анализируется постепенное совершенствование философских взглядов на человеческое сердце в новую эпоху и в западной философии. В статье также описывается формирование философско-антропологических взглядов на древнюю трактовку человеческой души и духовного мира человека.

Ключевые слова: Человеческая ценность, ценность, сердце, душа, душа, духовная сила, человеческое сердце, духовно-духовный мир, духовность, философская антропология.

PHILOSOPHICAL IDEAS AND RECOMMENDATIONS OF EASTERN THINKERS ABOUT THE VALUE OF HUMAN BEINGS.

Shodiyev Jahangir Jurakulovich - doctoral student of UzMU, Doctor of Philosophy (PhD).

shodiyevjahongir1985@gmail.com

+99890-299-95-17

Annotation: This article analyzes the gradual improvement of the philosophical views on the human heart in the new era and Western philosophy. The article also describes the formation of philosophical anthropological views on the ancient interpretation of the human soul and the human spiritual world.

Key words: Human value, value, heart, soul, spirit, spiritual power, human heart, spiritual and spiritual world, spirituality, philosophical anthropology.

Kirish

Davlatimiz rahbari “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko’rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog’lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”, deya ta’kidladi.

O’zbekistonda yurtdoshlarimizning roziligiga erishish, ularning qadr topishiga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylandi. Prezidentimiz raisligida o’tkazilayotgan biror yig’ilish yo’qki, unda xalqimizni o’ylantirayotgan masalalar, ayniqsa, aholining ehtiyojmand qatlami ijtimoiy himoyasida so’z yuritilmagan bo’lsa. Inson qadri mamlakatimizda birinchi o’ringa chiqdi. Har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlash, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etish, malakali tibbiy xizmat ko’rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog’lom ekologik muhit yaratib berish ham inson qadrlanayotganining belgisi. Inson qadr topsa, ijtimoiy himoyasi ta’minlanganligini his qilsa, unda yaratuvchanlik, izlanish, o’z ustida ishlash va hayotdan rozilik kayfiyati baland bo’ladi. Shu bois, mamlakatimizda insonni e’zozlash, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadidagi ulkan islohotlar davom ettirilmoqda.

Inson uchun eng oliy qadriyat uning hayoti va sog’ligidir. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoev mamlakatda “amalga oshirilayotgan islohotlarimiz markazida inson va uning manfaatlarini qo’yib, davlatimiz rivojlanishi strategiyasini rivojlantiradi. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak”, - degan fikrlariila inson hayoti, ruhiy barkamolligi va uning yashash huquqi asosiy e’tiborda bo’lishi kerakligini qayd qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, degan ezgu g’oya asosida yanada rivojlantirildi.

Inson qadrini ulug’lash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash demakdir.

O’zbekiston bugun o’zining uzoqni ko’zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, so’z va diniy e’tiqod erkinligi, gender tenglik bo’yicha erishayotgan yutuqlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo’yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog’lig’ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo’lgan shaxslarni har tomonlama qo’llab-quvvatlashga qaratilmoqda.

Asosiy qism

Hozirgi zamondagi ijtimoiy-falsafiy fikrda asosiy muammo inson masalasi ekan, uning yashash tarzi, hayoti, ruhiy barkamolligi kabi masalalar asosiy o’ringa chiqdi. Globallashayotgan davrda inson muammosi inson haytining ma’nosini, uning ruhiyatini, ichki borlig’ini tushunish bilan bog’liq.

Inson uchun eng oliy qadriyat uning hayoti va sog’ligidir. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoev mamlakatda “amalga oshirilayotgan

islohotlarimiz markazida inson va uning manfaatlarini qo'yib, davlatimiz rivojlanishi rivojlanishi strategiyasini rivojlantiradi. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak", - degan fikrlari ila inson hayoti, ruhiy barkamolligi va uning yashash huquqi asosiy e'tiborda bo'lishi kerakligini qayd qiladi.

Ijtimoiy himoya - keng ma'noda - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda - davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Professor I.Ergashev yozgandek: "Inson ongiga va ruhiyatiga turmushning, muhitning va "moddiyat"ning birlamchi, belgilovchi o'rni to'g'risidagi g'oya shu qadar chuqur singdirildiki, bu hayot mazmuniga aylandi".

Jamiyat ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlarining samarali bo'lishi, avvalo falsafiy ongni "milliy madaniy meros va qadriyatlar" negizida qo'yilganidir. Bu ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga yondashuvda, o'ziga xos yangicha falsafiy yondashuv va qarashdir. Aks holda, falsafiy ongda o'zgarishlarning sodir bo'lishi, o'z negiziga qo'yilmas edi, hamda kutilgan samaraga erishish qiyin bo'lar edi. Jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotining yangilanishi dunyoni anglash, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan ham uzviy bog'liq. Bu ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi rang-baranglikni to'g'ri idrok etishga yordam beradi. Falsafiy ong va tafakkurda ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'zgarishlarga mos tasavvur, g'oya va qarashlarni shakllanishiga, rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilish borasida o'ziga xos milliy tizim yaratildi va bu masalada maxsus milliy institutlar tashkil etildi. O'zbekiston deklaratsiya asosida qabul qilingan xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilib, inson huquqi sohasida umume'tirof etilgan tamoyillarga sodiqligini namoyon etdi. Bu sa'y-harakatlar, ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan ezgu g'oya asosida yanada rivojlantirildi.

Inson qadrini ulug'lash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, biz mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo'ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan yaqin do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

O'zbekiston bugun o'zining uzoqni ko'zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, so'z va diniy e'tiqod erkinligi, gender tenglik bo'yicha erishayotgan yutuqlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog'lig'ini saqlashni

kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda.

Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning aniq manzilli xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish imkonini bermiqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu asosda jamiyatimizning ijtimoiy manzarasi butunlay o'zgarmiqda, samarali boshqaruvning natijadorligi oshmoqda, eng muhimi, odamlarning hayotga, mehnatga, o'zining taqdiri va ertangi kunga ishonchi ortmoqda. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko'rsatish kabi ezgu an'analar bugungi kunda yangicha ma'no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormiqda.

Aynan shu sohalarida qadimdan boshlab inson va uning qadri masalasi barcha mutafakkirlarning asosiy mavzusi bo'lib kelgan. Buyuk allomalar Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar ham inson huquqlari masalasini chetlab o'tmaganlar. Somoniylar davrida amalda bo'lgan tartib-qoidalar, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bu mutafakkirlarning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ular o'z asarlarida bu davrga baho berish bilan birga, qimmatli g'oyalarni ilgari surganlar, inson huquqlari va ularni himoya qilish to'g'risida ham o'z fikrlarini yozib qoldirganlar.

Inson huquqlari g'oyasi diniy va huquqiy asarlardagina emas, falsafiy tafakkurning eng sara mevalarida ham o'z aksini topgan. Markaziy Osiyoning eng yirik mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy (873-950) o'zining "Fozil odamlar shahri" degan asarida aytgan, fozil shahar hukmdori "shahar uchun dastlabki imomlar tomonidan joriy etilgan qonunlar, qoidalar va rasm-rusmlarni biladigan, yodda tutadigan va o'z ishlari, harakatlarida ularga rioya etadigan" bo'lmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda, fozil shaharda inson huquqlarini amalga oshirishning eng asosiy omili bo'lgan qonun ustunligiga rioya etilmog'i lozim. Yer yuzida baxt-saodatga erishuvning shartlaridan biri ham shu. "Agar xalqlar baxt-saodatga erishish uchun bir-birlariga yordam beradigan bo'lsalar, butun kurrai zamin fozil va oqil bo'lib qoladi", - deb yozgan Forobiy insonparvarlik sohasida, muruvvatpeshalikda, shu jumladan inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini oldindan ko'rgandek. Forobiyning-Fozil odamlar shahrill jamoasi haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bian bog'lanib ketgan. Komil inson jamiyatning teng huquqli, erkin fuqarosi bo'lishi lozimligi, jamoa uning huquqlarini hurmat qilishi, kishilarning tinch va osoyishta hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlab berishi haqidagi fikrlar asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Garchi, bu masala xayoliy tarzda tasvirlangan bo'lsa-da, biroq unda insonga g'amho'rlik qilish, uning xaq-huquqlarini himoya qilish zarurligi g'oyalari ilgari surilganligining o'zi muhim ahamiyatga egadir.

Insonparvarlikning ko'rinishlaridan biri bu insonni ulug'lashdir. Inson tabiatning gultoji. U har qancha maqtovga loyiq zot sanaladi. Bu haqda Qur'on va hadislarda, mutafakkirlar ijodida ajoyib, ibratli fikrlar aytilgan. Biz bu o'rinda "Sharq Gegeli" degan sharaflil nomga sazovor bo'lgan faylasuf shoir, mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil

so'zlarini keltirish bilan cheklanamiz. Bedil insonni irqiy, milliy, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar hurmat va ehtiromga sazovor zot deb biladi va bu haqda shunday deydi: "Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal'undir". Qanday ajoyib fikr! Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli, ardoqli va olijanobdir.

Al Xorazmiyning asarlarda insonni ulug'lash, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, mardlik, saxiylik, kamtarlik, rostgo'ylik, do'stlik, olijanoblik, muruvvatlilik, odob-axloq, ilm-ma'rifat g'oyalari ilgari surilgan. Mutafakkir insonning insonga bo'lgan samimiy muhabbatini ta'riflab quyidagicha yozadi: "Muhabbat har qanday qimmat narsaning bahosidir va u har qanday yuqori narsaning shotisidir. Muhabbat xor-xashaklarga bardosh berilmasa va uning loyqa suvlarini ichmasa, unda yaxshilik bo'lmaydi. Muhabbat qanday yaxshi shafedir va uning egasiga qalb qanday yaxshi yordamchidir". Mutafakkir yoshlarni navqironlik davrining har daqiqasini qadriga yetishga, halol mehnat qilib, farovonlik, baxt-saodatga erishishga chaqiradi.

Forobiy "maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya-insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonunqoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi", deb aytadi. "Bunday inson, -deb yozgan edi Forobiy, - insoniy barkamollikning oliy sohibi va baxt saodat bo'ladigan xatti-harakatni biladigan zotdir". Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi Ibn Sino. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi.

Xususan, Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Uningcha, vatanga, xalqqa sadoqat eng avval uning taqdiri ustida g'amxo'rlikdan iboratdir. Insonga nisbatan beparvolik, uning taqdiri va baxtu saodati ustidagi g'am yemaslik sharaflilik inson uchun tamomila yotdir. Navoiyning barcha-barchani insonga g'amxo'r bo'lishga chaqirgan, insonparvarlikni kuylagan qo'yidagi bayti asrlar osha hammamiz uchun ibrat yanglig' yangrab turibdi:

Odami ersang, demagil odami,

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy ijodida bu mavzuning alohida o'rin egallaganligi tahsinga sazovordir. U nafaqat badiiy ijodda, balki o'z amaliy faoliyatida ham yuksak insonparvarlikka sodiq qolgan mutafakkirdir. U xalq uchun, el-ulus uchun, beva-bechora, yetim-yesirlar uchun madrasalar, tabobat xonalar, shifo maskanlari qurdirgan.

Insonning tabiatan yaxshiligi yoki yomonligi hamda qadri muammosi yangi davr falsafiy-tarixiy mulohazalarining markaziy masalasiga aylanadi: Bu masala ko'pgina Sharq donishmandlari bilan bir qatorda G'arb donishmandlari falsafasida yangicha qarashlar bilan boyitiladi. Ana shu muammoning yechimiga qarab inson haqidagi turli ta'limotlar yuzaga kelib, inson tabiatining mohiyatini asoslashga bo'lgan urinishlarda asosan insonning jamiyatda mavjud bo'lgan muayyan axloqiy normalarga rioya qilishi kerakligi talab qilindi". G'arb donishmandlari ruhiyat va ongning aynanligini tan olib, inson irodasi orqali xohish-istaklar ustidan mutlaq hukmronlikka erishishi mumkinligini aytadi. Jumladan Spinozaning fikricha, ehtiroslar ustidan tafakkur qudratini

mutlaqlashtirish to'g'ri emas. Devid Yum bo'lsa, aql istaklarning hizmatkoriga aylanib, unga xizmat qilishi va itoat etishi kerak, degan fikrni bildiradi.

XX asrning 20-yillarida inson to'g'risidagi nazariy bilimlarni qayta ko'rib chiqish natijasida falsafiy antropologiya oqimi shakllandi va hozirgi zamon falsafiy oqimlarining yondashuvlarini o'zgartirib, maxsus inson falsafasini rivojlantirdi. Falsafiy antropologiya insonning tabiati tabiiylik holati chegarasidan chiqib ketganligini ilgari surdi. Natijada o'z ichida yangicha oqimlar bo'lgan jismoniy antropologiya va zoopsixologiya, amerika madaniy antropologiyasi hamda ingliz ijtimoiy antropologiyasi shakllana boshladi.

Falsafiy antropologiyani rivojlantirgan faylsuflardan biri A.Gelen hissoblanadi. Uning qarashlari Nisshening inson to'g'risidagi qarashlari ta'sirida shakllanadi. Mutafakkir insonning hayvoniy instinktlarini va uni faol hayotiy faoliyatga ta'sirini o'rganadi. Uning ta'limoti inson va hayvon biologik tuzulishini solishtirishdan kelib chiqqan farqlar asosida o'zining biologik xususiyatlar ustuvorlik qiladigan yondashuvini yaratadi. A.Gelen o'z qarashlarida ma'naviy ruhiyat (qalb) faqatgina insonga xos ekanligini ta'kidlaydi. Lekin inson to'liq bo'lmagan, chala-yarim biologik mavjudot sifatida talqin qilinadi va hayvonot olamidan o'zining muayyan muhitga bog'lanmaganligi, moslashuv qobiliyati mavjudligi, o'z taqdirini o'zi xal qila olishi bilan farqlanadi. Inson o'zini saqlab qolish uchun u yangi shart-sharoitlarni, muhitni, o'z hayoti uchun zarur bo'lgan omillarni yaratishga majbur bo'ladi. Jumladan, o'zini ham o'zgartirib, o'zi yaratgan sun'iy muhitda istiqomat qiladi. Shunday qilib, biologik jihatdan moslashmagan "chala-yarim" insonning faol mavjudot ekanligini A.Gelen o'z tezisi orqali asoslab berdi.

Klasik falsafa inson muammosiga beparvolik bilan qarar, inson to'g'risida umumiy fikr yuritar edi, noklassik falsafa bo'lsa, inson hayotining barcha qirralarini ko'ra bilish, uning his-tuyg'ulari, qalb istaklarini o'rganish zarurligini ta'kidlard. Dastlab S.Kerkeorninng ekzistensial falsafasida insoning mavjudligi masalasi, Shopengauerning iroda falsafasi orqali axloqiy faoliyat yo'nalishlari va qalb istaklarining namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Shopengauer inson tabiatiga xudbinlik, g'azab-nafrat va rahm-shavqat kabi xislatlar xos degan fikrni keltiradi. Xudbinlik, g'azab-nafrat insonni ma'naviy inqirozga yetaklasa, rahm-shavqat ma'naviy yetuklik asosidir. Hayot falsafasi vakili Fridrix Nisshe inson qalbidagi maxluqlik va xoliqlik istaklari bir butun bo'lib uyushishi va inson barkamolligi uchun xoliqlik xislatlarini o'zida jamlay bilishi kerak, deb hisoblaydi. Uning fikricha, qalbdagi xoliqlik yuksalmog'i uchun inson o'z nafsini nazorat qilishni o'rganmog'i kerak va vijdon inson xatti-xarakati, xulq-atvorini nazorat qiluvchi «eng oliy hakam, Xudo ovozi» bo'lmog'i zarur. Faylasuf avvaldan insonga «hukmronlikka intilish irodasi» berilganligini ta'kidlaydi.

Ekzistensializm falsafasi insonni o'ta noyob mavjudot ekanligini isbotlovchi bir qator yangi ontologik dalillarni keltiradi. Hamisha inson o'z «men» ini topishga intiladi. «Men»ning haqiqiy qiyofasi «men emas», ya'ni insonga xos bo'lmagan qiliqlar, odatlar, inson borlig'iga dushman bo'lgan begonalashuvning ramzi edi.

Inson qalbi Fromm ta'limotida ruhiy mohiyat sifatida namoyon bo'ladi. Uning mazmuni davrdan tashqarida bo'lgan insonning ekzistensial ehtiyoji orqali ochiladi. U inson rivojidadagi ijtimoiy muhit rolini tan oladi. "Biroq ijtimoiy faoliyatning har qanday shaklini tuzishda inson tabiatining tug'ma ehtiyojlar tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydi". Insonning yovuzlik holati - o'zini ezib turgan, bosimda ushlagan, ma'lum bir qoliqlar ichida yashashga majburlagan holatlardan ozod bo'lishga fojiaiy urinish orqali yuzaga keladi. Umuman olganda, inson ezgulikka

va yovuzlikka moyil va kerakli paytda ulardan qay birining namoyon bo'lishi insonni mavjudligini belgilab beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlarning asl maqsadi islohot uchun emas, islohot inson uchun, uning baxt va saodati uchun degan amaliy ishlarning mazmun mohiyatini tashkil etadi. Inson qalbining ezgulikka layoqatini undagi ozodlikka intilish, muhabbat, ijodkor intellektga ega bo'lish kabi istaklarda ko'rsa, yovuzlikka bo'lgan maylini zo'ravonlik, tajovuzkorlik va buzg'unchilikni keltirib chiqaruvchi sadizm, mazoxizm, narsizm, nekrofiliya kabi tendensiyalarda deb biladi. Ushbu mayllarni mohiyati, kelib chiqishi, inson va jamiyatga ta'sirini tadqiq qilish orqali o'zining qalb konsepsiyasini ishlab chiqadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Исмоил Саифназаров. Янги Ўзбекистон: Инсон қадри улуғланган юрт. Т.:2023 й.
4. Jo'raev T. Milliy davlatchilik: Xavfsizlik va barqarorlik. –Toshkent: Akademiya, 2007.
5. Insani kamil. // Islamskiy ensiklopedicheskiy slovar. / Avt.: A. Alizade. Moskva: 2007.
6. Саттаров У. Миллий истиқлол ғояси: комил инсон / У. Саттаров; масъул муҳаррир А. Маврулов ; Респ. маънавият ва маърифат кенгаши, Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. – Тошкент : Турон zamin ziyo, 2016. – 31 б.
7. Саттаров У.У. Комил инсон ғоясининг рўёби // Миллий –ғоя-бизнинг ғоя: Илмий-амалий конференция материаллари.–Тошкент:”Турон замин зиё”, 2016.– Б.76–80.
8. Утепова Т. Б. Шарқ ва Ғарб маданиятининг тарихий-генезис масалалари // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2014. – № 1. – Б. 71–73.
9. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.